

**TADQIQOT TURLARI ASOSIDA TALABALARDA IJODIY MUNOSABATLAR TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10728779>

Sodiqova Dilfuza Ropijonovna

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasi katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda tadqiqot turlari asosida ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishning o'rni va ahamiyati to'g'risidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Tadqiqot, talaba, ijod, munosabat, ijodiy munosabat, tafakkur, dunyoqarash, tasavvur, faoliyat, rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье представлены мнения о роли и значении развития мышления творческих отношений у студентов на основе видов исследования.

Ключевые слова: Исследование, студент, творчество, отношение, творческий настрой, мышление, мировоззрение, воображение, деятельность, развитие.

Annotation: This article presents opinions on the role and importance of developing the thinking of creative relationships among students based on types of research.

Key words: Research, student, creativity, attitude, creative spirit, thinking, worldview, imagination, activity, development.

Har qanday shaxsning aqliy taraqqiyot darajasi, ya'ni bugungi kunda fan bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy yoki texnikaviy bilimi ijodiy, kreativ fikr yurita olishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham fan va texnika jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy munosabatlar yangilanayotgan hozirgi zamonda yoshlarni kreativ fikrlash faoliyatiga, ijodga o'rgatishga hamda ijodiy qobiliyatli shaxslarni rivojlantirish masalalari, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu nuqtayi nazardan bugungi kunda oliy o'quv yurtlari talabalarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ faoliyat yuritishni rivojlantirish muammolar ta'lim tizimida yetarli darajada o'rganilmagan. Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lim tizimi maqsadlarini to'g'ridan-to'g'ri o'zida aks ettirgan bo'lajak pedagog kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish, ularda ijodiy faoliyat va ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari va unga ta'sir ko'rsatuvchiomillarni aniqlash masalalari ta'lim tizimida o'z yechimini kutayotgan muammolardan sanaladi.

Dunyoda ro'y berayotgan barcha sohadagi yangilanishlar shiddat bilan kechayotgan bir vaqtda yoshlarni ta'lim-tarbiya tizimida raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash ta'lim tizimi oldiga perceptiv vazifalarni qo'ymoqda. Shu ma'noda bugungi kunda talabalar

ongida ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirish vazifasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, kishilik jamiyatida insonlarning faoliyati ijodiy munosabatlar doirasida amalga oshirib kelingan. Shuning uchun bugungi kunda ham u o'z kuchi va ahamiyatini yo'qotmagan.

Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirish deganda shaxsning ijodkorlik qobiliyatları, intilishlari va izlanishlari natijasida qo'yilgan maqsadga erishishning ilmiy ifodasi tushuniladi. Bundan kelib chiqadiki, talabalarni birinchi kursdan boshlab ijodiy munosabatlar doirasida tafakkurini rivojlantirib borishga yo'naltirish kerak. Buning uchun, albatta, tadqiqotimiz doirasida ijod tushunchasi va uning turlari, mazmun-mohiyati hamda ijodiy munosabatni rivojlantirishga yordam beruvchi omillarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy ijod – olim, tadqiqotchi, yaratuvchining qobiliyatları va mahorati, irodasi, tirishqoqligi va qat'iyatining, yakuniy maqsad – yangi haqqoniy ilmiy bilim olishga intilishining ifodasıdır. Inson bilimi orqali insoniyligini namoyon qila oladi. Bu haqda Aristotel: «Kishi bilimlari tufayli o'zining asosiy insonlik mohiyatini amalga oshiradi va bu uning barcha ilk elementar xatti-harakatlaridayoq namoyon bo'ladi», – deb ta'riflaydi [1].

Yetakchi olimlar tomonidan tadqiqotlarda ilmiy ijod tushunchasiga boshqacha yondashuvlar ham mavjud. Ular: «Ilmiy ijod – ilmiy bilimlarning rivojlanishi, yangi ilmiy bilimni yaratish, ilmiy bilimlarni yangi ilmiy qonun va qonuniyatlar, yangi ilmiy prinsiplar va nazariyalar bilan boyituvchi insonning yaratuvchilik faoliyatidir. Ilmiy tadqiqotning natijasi erishilgan ilmiy bilimdir», – deb ham e'tirof etishadi [2].

ILMIY TADQIQOTNING TURLARI:

1. Fundamental tadqiqotlar – voqelik hodisalari va qonunlari to'g'risidagi yangi bilimlar olishga qaratiladi.
2. Amaliy tadqiqotlar – amaliy vazifalarni hal qilish uchun kerakli bo'lgan yangi bilimlarni olishga qaratilgan ilmiy tadqiqot turi hisoblanadi.
3. Tadqiqotchilik loyiha-konstrukturlik ishlanmalari – amaliy tadqiqotlardan farqli o'laroq loyiha-konstrukturlik ishlanmalarining maqsadi aniq texnik vazifalarni hal qilishdan iborat.
4. Innovatsion tadqiqotlar – muayyan sohada mavjud bilimlarga tayanib ishlab chiqarish uchun foydali yangi ishlanmani ixtiro qilishni nazarda tutadi.
5. Yoshlarning amaliy va fundamental tadqiqotlari – bu nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, unda olimlarning fundamental va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy izlanish natijalari o'z ifodasini topadi [1].

Tadqiqot ishi ilmiy bo'lganligi bois, albatta, ilmiy dalillarga asoslanishi kerak. «Ilmiy haqiqat» tushunchasi kundalik hayotda ishlatiladigan «haqiqat» tushunchasiga qaraganda ancha kengroq va ko'p qirralidir. Ilmiy fakt – bu narsalar va jarayonlarning obyektiv xususiyatlarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlarning elementi hisoblanib, mavzuni o'rganish, xulosalarni tasdiqlash uchun ishlatiladigan hodisa. U ilmiy dalillarga asoslanib,

hodisalarning xususiyatlari va qonuniyatlarini aniqlashtirish jarayonida nazariya va qonunlar to'g'risida xulosa chiqaradi.

Ilmiy faktning ahamiyati tufayli tadqiqotchi ishni tanqidiy baholaydi, uning obyektivligini, ishonchlilikini ochib beradi. Ishonchlilik uning asl manbalari asosida aniqlanadi. Agar ilmiy faktning ishonchliligi aniqlanmagan bo'lsa, uni, birinchi navbatda, ilmiy deb atash mumkin emas, ikkinchidan, ilmiy ishlarda foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy faktlar obyektivlik, ishonchlilik, aniqlik bilan tavsiflanadi va undan foydalanishda uning yangiligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar rasmiy manbalardan olingen faktlarni qayta ko'rib chiqishi, tekshirishi maqsadga muvofiq [2].

Demak, talabalarda ijodiy munosabatlар tafakkurini rivojlantirish ijod turlari va ijodning mohiyati haqidagi tasavvurlarning xususiyati bilan belgilanar ekan.

Ijodiy tasavvur – bu tayyor tavsif yoki shartli tasvirga tayanmasdan yangi tasvirlarni yaratish. Ijodiy tasavvur jarayonida inson mustaqil ravishda boshqa odamlar yoki, umuman, jamiyat uchun qadrli bo'lgan va faoliyatning asl mahsulotlarida mujassamlangan yangi obrazlar va g'oyalarni yaratadi.

Bolalar va kattalarda ijodiy tasavvurning rivojlanishi xotirani yaxshilash, fikrlashni kengaytirish va ma'lumotni osonroq o'rghanish imkonini beradi. Talabalar ijodiy tasavvur qilish jarayonida o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga innovatsion yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini o'zlariga yaratdi.

Psixologiya va pedagogika fanlari rivojlanishining hozirgi bosqichida insonning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va takomillashtirishga imkon beradigan turli usul va metodlar mavjud.

Faoliyat darajasiga ko'ra tasavvur turlaripassiv, faol, samarali, reproduktiv, gallyusinatsiyalar va orzular kabilarga bo'linadi.

Gallyusinatsiya – bu inson ongingin o'zgargan (normal emas) holatidan kelib chiqqan tasavvur mahsulotlari. Ushbu holatlar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin: kasallik, gipnoz, giyohvand moddalar, spirtli ichimliklar, psixotrop moddalarva boshqa narsalarning ta'sir qilishi.

Orzular – bu orzu qilingan kelajakka qaratilgan tasavvur mahsulotlari. Orzular ozmi-ko'pmi haqiqiy va qoida tariqasida, amalga oshiriladigan insoniy rejalarini o'z ichiga oladi. Orzular tasavvur shakli sifatida, ayniqsa, hayotining ko'p qismini kutayotgan yoshlarga xosdir. Jumladan, I.Kant ijod jarayonini maxsus tahlildan o'tkazar ekan, unga insonning tasavvuri mahsuli deb qaradi. Ijodni, bir tomondan, sof intellektual hodisa sifatida, ikkinchi tomondan esa ijodiy faoliyat negizidagi ekzistensial faoliyat deb talqin qilish hozirgi zamon falsafasiga xosdir.

Ekzistensializm (fr. existentialisme, lat. existentia –«mavjudlik») degan ma'noni anglatadi. Ekzistensializm odamni har bir alohida vaziyatda konstruktiv semantik faoliyatga yo'naltiradi. Ekzistensializm konstruktiv semantika hukmlarni tushunish usullari to'plami degan ma'noni beradi, desak maqsadga muvofiq bo'ladi.[3].

Ijodiy munosabatlar tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan talabalarda fikrning teranligi, tiniqligi, mantiqiyligi, erkinligi, mustaqilligi, badiiyligi, ijodiyligi kabi tafakkur sifatlari yuqori darajada bo'ladi. Bunday tafakkur sifatlariga ega bo'lgan talabalar astasekinlik bilan o'zlaridagi qalb ruhiyatining uyg'onib borayotganlarini his qila boshlaydi va bundan zavqlanadi. O'z ishlardan zavqlanish hissi esa ularni yaratish, ijod qilish, kashfiyot qilishga undaydi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda hulosa qilish mumkinki, ijod bilan bog'liq bilimlar pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishda juda ko'p o'rganilgan. Biroq aynan talabalar ongida ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirish masalasi ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etilmagan. Shuning uchun ham biz bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama mukammal, komil inson bo'lib yetishini istasak ularda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Bunday yoshlar jamiyat va davlat ravnaqiga o'zlarining hissalarini qo'sha oladi. Ular o'z vataniga foyda keltirish bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aristotel. Metafizika.- M.: 2015 Y., - 384 b.
2. Raxmatova F.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matematik tafakkurini takomillashtirish. Ped.fan.boyicha falsafa dok.(PhD) diss... – T., 2019., - 148 b.
3. Юсуфбекова Н.Р. Общие основы педагогической инноватики: Опыт разработки теории инновационных процессов в образовании. - М.: СПО РСФСР, 1991. - 91 с.